

2019-yil yanvar–fevral oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

So'nsggi yigirma yil mobaynida jahon iqtisodiyotining tarmoqlaridan biri sifatida xizmatlar sohasida jadal o'sish kuzatilmoqda. Bu ishlab chiqarishning murakkabligi, bozorni yangi mahsulotlar bilan to'yinganligi, innovatsion texnologiyalarning jadal o'sishiga bog'liqdir.

Shuningdek, xizmatlar sohasining jadal o'sishi yangi faoliyat turlari va investitsion imkoniyatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda kredit-moliyaviy, axborot, telekommunikatsiya, tibbiy, intellektual va ko'ngilochar xizmatlar bozorlari rivojlanmoqda.

2019-yil 1-mart holatiga ko'ra respublikamizda 53,3 mingta korxona va tashkilotlar xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatmoqda, bu faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida (73,6 ming birlik) 72,4 % ni tashkil etadi. Ularning o'sishi o'tgan yilga nisbatan 18,8 % ni tashkil etdi.

2019-yil 1-mart holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2019-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibida eng yuqori ulushni savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi (31,1 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 9,2 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 6,2 % ga yetdi.

2019-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi 3,3 % ga teng bo'ldi.

Sog'lijni saqlash sohasida va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,1 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar–fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 862,9 mlrd. so'mga oshib, 8 337,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,0 % ni tashkil etdi.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida moliyaviy xizmatlar etakchi o'rinni egallaydi. Ularning ulushi 27,8 % ni tashkil etdi, 2018-yil yanvar–fevral oylariga nisbatan hajmi 760,9 mlrd. so'mga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, (2019-yil yanvar–fevral oylarida, %)



Bundan tashqari, eng katta ulush savdo xizmatlari, transport xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish, shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarda kuzatiladi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning
asosiy ko'rsatkichlari**
(2019-yil yanvar-fevral oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	8 337,5	115,0
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	709,2	97,0
Moliyaviy xizmatlar	2 314,2	144,2
Transport xizmatlari	976,6	105,6
shu jumladan: avtovoz xizmatlari	584,8	100,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	312,8	105,3
Savdo xizmatlari	2 179,0	104,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	374,7	106,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	413,0	121,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	156,0	124,9
Ijara xizmatlari	161,8	106,5
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	43,0	109,6
Shaxsiy xizmatlar	112,4	112,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	208,8	127,8
Boshqa xizmatlar	376,1	104,2

Respublikamizda olib borilayotgan kredit siyosati bo'yicha islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar–fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 144,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (127,8 %), sog'lioni saqlash sohasida (124,9 %) va ta'llim sohasidagi xizmatlar (121,4 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati

(2019-yil yanvar–fevral oylarida, %)



Respublikamizning iqtisodiy rivojlanishida transport muhim rol o'ynaydi. Transport xizmatlari umumiylajmining qariyb yarmi avtomobil transportida yuklar va yo'lovchilarni tashish xizmatlari hisobiga to'g'ri keladi.


Avtomobil transport turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning manevrliligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi. Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transportining ulushi 59,9 % ni tashkil etadi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinn tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar–fevral oylarida savdo xizmatlari hajmi 2 179,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 26,1 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 312,1 mlrd. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlari tarkibi, (2019-yil yanvar–fevral oylarida %)



Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 47,3 % ga yetdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar–fevral oylarida uning ulushi 45,5 % ni tashkil etdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmida 7,0 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Chilonzor (320,0 mlrd. so'm), Shayxantohur (236,3 mlrd. so'm), Uchtepa (229,5 mlrd. so'm), Mirobod (222,3 mlrd. so'm) va Yakkasaroy (219,3 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Tumanlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi

(2019-yil yanvar–fevral oylarida)



Savdo xizmatlari bo'yicha eng past ko'satkichlar Olmazor tumanida kuzatildi. Ushbu tumandagi savdo xizmatlari hajmi 111,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

2019-yil yanvar–fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 2 314,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 144,2 % ni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlarning

hajmi va o'sish sur'atlari

(2019-yil yanvar–fevral oylarida)



Moliyaviy xizmatlarning o'sish omillari sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmining o'sishi, jumladan, pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar hajmining o'sishi bilan izohlanadi.

Moliyaviy xizmatlarning yuqori o'sish sur'atlari Chilonzor (183,7 %), Mirzo Ulug'bek (183,2 %) va Uchtepa (165,0 %) tumanlarda qayd etildi.

Nisbatan past o'sish sur'ati Olmazor tumanida – 111,1 % qayd etildi.

Ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekistonidagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.


Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, avvalo, inson ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'naviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

2019-yil yanvar–fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 413,0 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 21,4 % ni tashkil etdi.

Tumanlar orasida Olmazor tumani etakchi o'rinni egallaydi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarda uning ulushi 16,8 % ni tashkil etdi. Buning sababi, ta'lim muassasalarining katta qismi bu erda joylashganligidir. Toshkent shahrida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 69,0 mlrd. so'mga yetdi.

Tumanlar bo'yichata'lim sohasidagi xizmatlar hajmining taqqoslanishi

(2019-yil yanvar–fevral oylarida)




Ta'lif sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'atlari Mirobod tumanida - 145,7 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, ta'lif sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Mirzo Ulug'bek (136,5 %), Olmazor (133,4 %) va Yashnobod (118,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Tumanlar kesimida ta'lif sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlari

(2019-yil yanvar–fevral oylarida)



Eng past o'sish sur'atlari Yunusobod tumanida - 104,3 % qayd etildi.

2018-yil yanvar–fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining o'sish sur'ati 5,3 % ga o'sdi, hajmi esa 64,1 mlrd. so'mga oshdi va 312,8 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi 77,9 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 22,1 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi,

(2019-yil yanvar–fevral oylarida, %)



Yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha eng katta hajm Yunusobod tumanida 81,4 mlrd. so'm qayd etildi, 2018-yil yanvar–fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati 9,4 % kuzatilmoxda.

Eng kichik hajm esa Bektemir tumanida kuzatildi - 2,3 mlrd. so'm.

Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

(2019-yil yanvar–fevral oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Toshkent shahri	8 337,5	115,0
tumanlar:		
Uchtepa tumani	441,4	106,4
Bektemir tumani	227,9	109,0
Yunusobod tumani	1 414,4	105,9
Mirzo Ulug'bek tumani	907,8	124,7
Mirobod tumani	1 323,6	113,2
Shayxontohur tumani	833,6	112,6
Olmazor tumani	403,7	105,6
Sergeli tumani	486,0	111,5
Yakkasaroy tumani	538,3	106,3
Yashnobod tumani	884,4	115,7
Chilonzor tumni	824,5	112,4
Tumandan tashqarida	51,9	116,1


Shahrimizdag'i tumanlar moliyaviy salohiyatini yuksaltirish va unda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

2019-yil yanvar–fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Yunusobod tumanida (1 414,4 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 106,0 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga eng yuqori o'sish sur'atlari Mirzo Ulug'bek (124,7 %), Yashnobod (115,7 %), Mirobod (113,2 %), Shayxontohur (112,6 %) va Chilonzor (112,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati

(2019-yil yanvar–fevral oylarida %)




Uncha yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Olmazor (105,6 %), Yunusobod (105,9 %) va Yakkasaroy (106,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy Toshkentning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari respublikaning har bir iqtisodiy tumani va tumanlarining barcha resurslaridan milliy va mahalliy manfaatlardan kelib chiqqan holda oqilona foydalanishga bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumi hajmida

tumanlarning ulushi,

(2019-yil yanvar–fevral oylarida %)



Tumanlar bo'yicha xizmatlarning umumi hajmida eng yuqori ulushlarni Yunusobod (17,0 %), Mirobod (15,9 %), Mirzo Ulug'bek (10,9 %), Yashnobod (10,6 %) va Shayxontohur (10,0 %) tumanlari egallaydi.

Tumanlar o'tasida eng kichik ulushlar Bektemir (2,7 %), Olmazor (4,8 %), Uchtepa (5,3 %) va Sergeli (5,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi**71-230-88-15****71-230-88-25**